O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Globallashuv jarayonida
innovatsion ta’lim va milliy
tarbiya: integratsiyaga xos
muammolar, bahslar va yechimlar

“Globallashuv jarayonida innovatsion ta’lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar”

mavzusidagi

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO‘PLAMI

Сборник материалов международной
научно-практической конференции на тему:

«ИННОВАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ДИСКУССИИ И РЕШЕНИЯ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОБЛЕМ»

“INNOVATIVE AND NATIONAL EDUCATION IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION: PROBLEMS, DISPUTES AND SOLUTIONS RELATED TO INTEGRATION”
international scientific-practical conference on a collection of materials

Termiz - 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“GLOBALLASHUV JARAYONIDA INNOVATSION TA’LIM VA MILLIY TARBIYA: INTEGRATSIYAGA XOS MUAMMOLAR, BAHSLAR VA YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

Сборник материалов международной научно-практической конференции на тему: «ИННОВАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ДИСКУССИИ И РЕШЕНИЯ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОБЛЕМ»

“INNOVATIVE AND NATIONAL EDUCATION IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION: PROBLEMS, DISPUTES AND SOLUTIONS RELATED TO INTEGRATION”

international scientific-practical conference on a collection of materials

O‘zbekiston, Termiz shahri,

27-may 2023-yil

"Risolayi isboti vojib", "Risolat ul-mufradot", "Risolayi fi tavjix ul-tashbih" va boshqalar. Davoniyning axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan " Axloqi Jaloliy" asari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan. Asar uch qismdan iborat. Birinchi qismi- axloq faniga, ikkinchi qismi- odamning ichki holati, oilaviy hayotiga bag'ishlangan. Uchinchi qism- "shahar-davlatni boshqarish va podshohlar siyosati" deb nomlanib, unda muhim ijtimoiy- siyosiy masalalar ko'tarilgan.

Davoniy inson o'zining aqliy qobiliyatini tarbiyalash uchun quyudagilarga amal qilish lozimlogini uqtiradi: 1) zehn o'tkirligi; 2)fahmlilik; 3)zehn ravshanligi; 4) bilimni tez egallash qobiliyati; 5) qo'yilgan muammoni tezda anglashi; 6) yodlash qobiliyati; 7) xotira.

Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb -hunarni 3 turga bo'ladi:

1) inson aqliy faoliyati bilan bog'liq;
2) ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladigan;
3)kishilarning shijoati va jasurligi bilan bog'liq.

Davoniy insoniy fazilatlarni to'rtta asosiy turga ajratadi:

-donolik;
-adolat;
-shijoat;
-iffat.

Xulosa qilib aytganda, XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalarimizning asarlarida odob-axloq, mehr- muruvvat, sadoqat, ishonch, ilm, vatanga bo'lgan sadoqat tushunchalarini ilgari surishgan. Movaraunnahrning o'sha davrda ilm-fan, madaniyat sohasida gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shishgan. Hozirgi kunda ham ular yozgan asarlar ilm-fan ravnaqi uchun dasturulamal bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.X. Xodjayev " Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" " Sano- standart" nashriyoti Toshkent- 2017.
2. K.Hashimov S. Nishonova " Pedagogika tarixi" "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy nashriyoti " Toshkent-2005

OLIY TA'LIMDA BO' LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH

Qambarov Mirzobobir Bahodir o'g'li -Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ С ВЫСШИМ ОБРАЗОВАНИЕМ К ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Камбаров Мирзобобур Баходирович -соискатель кафедры "Педагогика" Бухарского государственного университета

DEVELOPMENT OF THE PROCESS OF PREPARING FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION

Kambarov Mirzobobur Bahodirovich - independent researcher of the Department of Pedagogy of Bukhara State University

Respublikamizda so'nggi yillarda innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. "Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuvni amalga oshirishda ta'lim muassasalari, oila va mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish, ular orasida milliy, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ilmiy-metodik uzviylikni sifat jihatdan yuqori darajaga ko'tarish"dan ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi [2].

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi.

Tarbiyachilik faoliyatining mazmunida oldinga ko'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlariningsh mohiyati aks etadi. O'qituvchi tarbiya mazmunini shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy-iktisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilaydi[3].

Tarbiyaviy faoliyat tushunchasi yagona ta'rifga ega emas. Mazkur tushuncha turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqilib, ta'riflangan bo'lib, lug'at va ma'lumotnomalarda berilgan ta'riflarga ko'ra, tarbiyaviy faoliyat – tarbiya jarayoni, tarbiyalash jarayoni, tarbiyaviy jarayonni tashkil etish, tarbiyaviy faoliyatni uyushtirish kabi ma'nolarni anglatadi. L.A.Baykova tarbiyaviy faoliyat o'qituvchining o'quv faoliyati mobaynida o'quvchilarni tarbiyalashdagi ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan ma'lum qobiliyatlarni o'z ichiga olgan komponent deb qaraydi.

V.D.Shadrikov tarbiyaviy faoliyatni tushunchasini uni tashkil etish mazmuni va funksiyalaridan xabardor mutaxassis shaxsi bilan bog'lab, mazkur faoliyatni tashkil etishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlarini anglashiga ishora qiladi. O'qituvchining o'quvchi shaxsini tarbiyalash, rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga va erkin ijodiy o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini tanlashga qaratilgan harakatlar tizimi. Tarbiyaviy faoliyat - insoniyat tomonidan to'plangan madaniyat va tajribani avloddan-avlodga o'tkazishga, shaxsning shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat turi [4].

Oliy ta'lim muassasasi bo' lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ularda komil shaxs va mutaxassis xususiyatlarini shakllantirish va mazkur faoliyatga aksiologik munosabatni rivojlantirishda quyidagi shart-sharoitlar zarur hisoblanadi:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonining talabalarga yo'naltirilganligi sifatida yangicha qarash. Bu quyidagilarni bildiradi: talaba pedagogik jarayonning obyekti emas,

subyekti sifatida aks etadi, ular maqsadlarga erishish vositasi emas, ta'lim tizimining maqsadi – barcha talaba qobiliyatli, iqtidorli deb qarash, ularning muhim sifatlari sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar aks etadi.

2. Ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, talabalar ishtiroki va faolligini qo'llab-quvvatlash. Talabalarda pedagogik, tarbiyaviyfaoliyatga xohish, mustahkam istak, mas'uliyat, kasbiy burch va axloq me'yorlarini singdirish. Talabalarga yuksak ishonch, hamkorlik va muloqot mahorati bilan yondashish muhim bo'lib, ularni to'g'ridan to'g'ri majburlash, qo'rqitish va tinimsiz salbiy oqibatlarni eslatish orqali o'qisho'rganish, ma'naviy-ma'rifiy, jamoatchilik tadbirlarida ishtirokini ta'minlashdan voz kechish zarur. Shuningdek, talabalarni ijobiy rag'batlantirish, pedagog sifatida shakllanayotgan kasbiy mahorati oraliq natijalarini e'tirof etish muhim hisoblanadi[1].

3. Talabalarni kasbiy, ma'naviyma'rifiy faoliyatga tayyorlash jarayonida "to'g'ridan-to'g'ri majburlash"dan, natija bermaydigan ta'lim-tarbiya metodlaridan voz kechish.

4. Individual yondashuvni keng joriy etish. Bunda: "o'quv fanidan talabaga qarab emas, balki talabadan o'quv faniga borish" tamoyilining bajarilishi; talabalarning qiziqishlari, qobiliyatlari va intilishlarini hisobga olgan holda o'qitish; o'quv guruhlarida o'rtacha o'zlashtiruvchi talabaga yo'nalganlikdan voz kechish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'PQ-637 sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. Mavlonova R.A., Voxidova N.X., Rahmankulova N.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2010.
3. Вохидова Н. Х., Абдулхаева М. ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТ ФУНКЦИЯЛАРИ ВА КОМПЕТЕНТЛИК // CARJIS. 2022.
4. Шымарева Н.А., Губанова М.И., Крецан З.В. Педогогические системы: на ученые основы, управление, преспективы развития.
5. САМИЕВА Ш., ШАМСУЛЛАЕВА Р. ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК СОВРЕМЕННАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА //EDAGOGIK AHORAT. – С. 81.

BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOB MUTOLAASI VA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Musurmonova Mehriniso Termiz davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: Maqolada boshlangich sinf o'quvchilarida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob o'qish ko'nikmasi shakllansa, ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, kitobxonlik madaniyati shakllangan.

Kalit so'zlar: O'quvchi, kitobxonlik, ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri, dunyoqarash, amaldagi mazmuni.

O'zbekiston «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan

	Boboniyozova Manzura Karim qizi, Termiz davlat pedagogika instituti, filalogiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi	
228	***Ўзбек халқ тарбияси анъаналари, маросимлари ва урф-одатларининг амалётдаги ўрни*** *Сохибов Акрам Рустамович, Қарши давлат университети доценти*	***707***
229	***Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid insonparvarlik g'oyasi*** *Shoberdiyeva Yulduz Ilhomjon qizi, Termiz davlat pedagogika intituti Pedagogika yo'nalishi talabasi*	***711***
230	***Forgotten gaudi*** *F.Kodirov, Master student Tashkent university of architecture and civil engineering*	***713***
231	***XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji*** *Qubijonova Ruxshona Dilshodbek qizi, Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika yo'nalishi talabasi*	***716***
232	***Oliy ta'limda bo' lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonini rivojlantirish*** *Qambarov Mirzobobir Bahodir o'g'li, Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi*	***718***
233	***Boshlangich sinf o'quvchilarida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usullari*** *Musurmonova Mehriniso, Termiz davlat pedagogika instituti magistri*	***720***
234	***Maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning mazmuni va ahamiyati.*** *Meyliqulova Zarnigor Baxtiyorovna, Angor Pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi*	***724***
235	***Pedagogika kollejlarida pedagogika fanlarini o'qitishda milliy an'analardan foydalanish metodikalari tahlili*** *Mengliqulova Maftuna Abdullayevna, Termez davlat pedagogika inistutiti Pedagogika va Pxixologiya mutaxasisligi magistiranti*	***726***
236	***Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish metodikasi*** *Norbo'tayev Xo'shboq Bobonazarovich, Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*	***731***